



№4
2024



ÓZBEKSTAN MÁMLEKETLIK KONSERVATORIYASÍ
NÓKIS FILIALÍ

MUSIQA VA SAN'AT AXBOROTNOMASI | ВЕСТНИК МУЗЫКИ И ИСКУССТВА | BULLETIN OF MUSIC AND ART

MUZÍKA HÁM KÓRKEM ÓNER XABARSHÍSÍ

ILIMIY - METODIKALÍQ JURNAL



**ÓZBEKSTAN RESPUBLIKASÍ JOQARÍ
BILIMLENDIRIW, ILIM HÁM INNOVACIYALAR
MINISTRILIGI
ÓZBEKSTAN RESPUBLIKASÍ MÁDENIYAT
MINISTRILIGI
ÓZBEKSTAN MÁMLEKETLIK KONSERVATORIYASÍ
NÓKIS FILIALÍ**

MUZÍKA HÁM KÓRKEM ÓNER XABARSHÍSÍ
Ilimiy-metodikaliq jurnal

MUSIQA VA SAN'AT AXBOROTNOMASI
Ilmiy-uslubiy jurnal

ВЕСТНИК МУЗЫКИ И ИСКУССТВА
Научно-методический журнал

BULLETIN OF MUSIC AND ART
Scientific-methodical journal

№ 4/2024

SHÓLKEMLESTIRIWSHI:

Ózbekstan mámleketlik konservatoriyası Nókis filiali

Bas redaktor: – Allanbaev Rudakiy, professor

Juwaplı xatker: – Kamalova Difuza, *filologiya ilimleri boyınsha filosofiya doktori, docent.*

REDKOLLEGIYA AĞZALARI:

OZODBEK NAZARBEKOV – Ózbekstan Respublikası Mádeniyat ministri, professor;

AZIZBEK TURDIEV – Ózbekstan Respublikası Oliy Majlis Senatının jaslar, mádeniyat hám sport máseleleri komiteti baslıǵı orınbasarı, filologiya ilimleri boyınsha filosofiya doktori (PhD);

BEGIS TEMIRBAEV – Qaraqalpaqstan Respublikası Mádeniyat ministri, docent;

KAMOLIDDIN URINBAYEV – Ózbekstan mámleketlik konservatoriyası rektori, docent;

OMONILLA RIZAEV – kórkem ónertanıw ilimleriniń kandidati, professor;

HIKMAT RAJABOV – professor;

ORAZALI TOSHMATOV – professor;

BAXT AZIMOV – pedagogika ilimleri kandidati, docent,

MUHABBAT TOLAXOJAEVA – kórkem ónertanıw ilimleriniń doktori, professor;

MARFUA XAMIDOVA - kórkem ónertanıw ilimleriniń doktori, professor;

BOLTABOY SHODIYEV - kórkem ónertanıw ilimleriniń doktori;

OZODA TOSHMATOVA - kórkem ónertanıw ilimleriniń doktori, professor;

SAYYORA ĞAFUROVA – professor;

OYDIN ABDULLAEVA – professor;

IRODA MIRTALIPOVA – kórkem ónertanıw ilimleri boyınsha filosofiya doktori (PhD);

PARAXAT MAMUTOV – kórkem ónertanıw ilimleri boyınsha filosofiya doktori (PhD);

QURBANBAY JARIMBETOV – filologiya ilimleriniń doktori, professor;

ALIMA BERDIMURATOVA – filosofiya ilimleriniń doktori, professor;

ZIYADA BEKBERGENOVA – filologiya ilimleriniń doktori (DSc), professor;

ALIMA PIRNIYAZOVA – filologiya ilimleriniń doktori (DSc);

YUSUPOV QONÍSBAY – pedagogika ilimleriniń doktori (DSc), professor;

UTEBAEV TAJIBAY - pedagogika ilimleriniń doktori (DSc), professor;

SEYTKASIMOV DAULETNAZAR - pedagogika ilimleriniń doktori (DSc);

ARTÍQBAY EREJEPOV – pedagogika ilimleri boyınsha filosofiya doktori (PhD), docent;

JAÑABAY MARZIYAEV – filologiya ilimleri boyınsha filosofiya doktori (PhD), docent;

Jurnal qaraqalpaq, ózbek, rus hám ingliz tillerinde jılına 2 márte basıladı. Jurnal Ózbekstan Respublikası Prezidenti Administraciyası janındaǵı Málimleme hám ǵalaba kommunikaciýalar agentligi tárepinen mámleketlik dizimnen ótkerilgen. №047569 4-oktyabr, 2022-jıl.

Ózbekstan Respublikası Joqarı Attestaciya Komissiyasınıń 2024-jıl 30-iyuldaǵı 358-sanlı qararı tiykarında jurnal 17.00.00-Kórkem ónertanıw ilimleri jónelisi boyınsha dissertaciya nátiyjelerin baspadan shıǵarıw ushın arnalǵan jetekshi ilimiy jurnallar qatarına kiritilgen.

Redaksiya mánzili: Ózbekstan mámleketlik konservatoriyası Nókis filiali Turan oypatı 29-jay.

E-mail: ozdknf@edu.uz, UZDK_Nukus@exat. Tel:551020540 Veb-sayt: <https://science.uzdknf.uz/>

ISSN-2181-4112

XALQ CHOLG‘ULARI ORKESTRIDA RUBOB PRIMANING O‘RNI

Djumaniyazov U.M.

O‘zbekiston davlat konservatoriyasi Nukus filiali

Annotatsiya: Mazkur maqolada o‘zbek xalq cholg‘u ijrochiligiga oid bilimlar, tarixiy yondashuvlarga oid fikrlar hamda o‘zbek xalq musiqiy cholg‘u ijrochiligining takomillashuvi haqida bilimlar yoritilgan. Shuningdek, xalq cholg‘ularining takomillashuvi jarayonida yuzaga kelgan boshqa cholg‘ular qatori rubob prima cholg‘usining yaralishi, qo‘llanilishi hamda uning tuzilishiga oid fikrlar yoritilgan.

Kalt so‘zlar: Rubob, rubob prima, ijrochilik uslubi, torli cholg‘ular, damli cholg‘ular, zarbli cholg‘ular, yakkanavoz, diopazon, oktava, xarrak.

Аннотация. В этой статье представлены знания об игре на узбекских народных инструментах, размышления об исторических результатах и знания об совершенствовании игры на узбекских народных музыкальных инструментах. Наряду с другими инструментами, появившимися в процессе совершенствования временных народных инструментов, освещены создание, поддержка и структура инструмента рубоб прима.

Ключевые слова: Рубоб, рубоб прима, стиль исполнения, струнные инструменты, духовые инструменты, ударные инструменты, солист, диапазон, октава, харак.

Abstract. This article covers the knowledge of Uzbek folk instrument performance, historical approaches, and knowledge about the improvement of Uzbek folk musical instrument performance. Also, the creation, use, and structure of the rubob prima instrument, along with other instruments that arose during the improvement of folk instruments, are discussed.

Key words: Rubob, rubob prima, performance style, stringed instruments, wind instruments, percussion instruments, soloist, diapason, octave, kharak.

Kirish: Hozirgi davr jahon musiqa madaniyatida asrlar davomida sayqallashib kelgan ijro an‘analari va musiqa cholg‘ularining tarixiy ahamiyatini ilmiy-nazariy, ilmiy-amaliy tadqiq etish ishlari jadal olib borilmoqda. Ayniqsa, milliy cholg‘ularda ijro etgan va ijro etib kelayotgan mohir ustoz-sozandalarning ijrochilik uslublari o‘rganish, tahlil qilish, taqqoslash hamda ularni yosh avlod vakillariga ilmiy tomondan asoslab berish muhim va dolzarb masalalardan biridir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 17 noyabrdagi “O‘zbek milliy maqom san‘atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-

3391-sonli Qarorida [1] boy milliy musiqa merosimizni chuqur o'rganish, maqom san'atini ilmiy va amaliy tadqiq qilishga a'lohida ahamiyat qaratilgan.

Asosiy qism: O'zbek xalqi musiqiy cholg'ularga boyligi jihatidan jahon halqlari orasida ilg'or o'rinlardan birini egallaydi. Zero musiqiy sozlarning xilma xilligi shu qadarki, ularda cholg'uda ijro etish vositalarining deyarli barcha turlari hususan turli chertma torli, kamonli, torli zarbli, labli puflama, urma zarbli va hokazo ko'rinishlari namoyon bo'ladi. Bundan tashqari zakovatli musiqachi olimlar, xususan, Abu Nasr Farobiy, Abu Ali Ibn Sino, Qutbiddin Sheroziy, Sayfiddin Urmaviy, Abdurahmon Jomiy, Mahammad Omuliy, Zaynulobiddin Xusayniy va boshqalar o'zlarining musiqaga doir ilmiy qarashlarini boshqa sozlar asosida bayon etganlar. Shu bilan birga Abu Nasr Farobiyni «Katta musiqa kitobi», Zaynulobiddin Husayniyning «Qonuni ilmiy va amali musiqiy», Darvish Ali Changiyni «Musiqaga oid risola»si kabi yozma manbalarda ayrim cholg'ular ta'rifi keltirilgan.

Hozirda ma'lum va musiqa amaliyotida qo'llanilib kelinayotgan cholg'ular esa uch asosiy guruhni torli, damli va zarbli sozlar majmuasini tashkil etadi. Torli cholg'ular guruhi ijrochilik vositasi asosida torli chertma (dutor, do'mbira, tanbur, rubob, ud) turli komonli, qobiz, sato, g'ijjak va torli-zarbli (chang) turlarga bo'linadi. Torli cholg'ular qadim zamonlardan shakllanib, turli xalqlar amaliyotida o'z ma'naviyati va an'anasi doirasida rivoj topib kelgan musiqiy asboblardan bir turi hisoblanadi. O'tmish manbaalarida keltirilgan rivoyatlarga ko'ra, birinchi kashf etilgan torli cholg'uni nomi Barbat bo'lgan va ilk bor buyuk yunon olimi Fisog'urs (Pifagor) tomonidan ixtiro etilganligi qayd etiladi. Darhaqiqat, ilk yasalgan (yaratilgan) cholg'u har tomonlama sodda va oddiy bo'lgan va keyinchalik rivojlangan.

Yuqorida ta'kidlangan cholg'u sozlari bugungi kungacha bo'lgan davr mobaynida birmuncha takomillashtirilganligini guvohi bo'lishimiz mumkin. Musiqa cholg'ularini rekonstruksiya qilish va takomillashtirish ularni yangi texnologiya asosida, muayyan konstruktiv o'zgartirishlar kiritish bilan yasashni anglatadi. Undan asosiy maqsad tovush (ohang) xususiyatlarini yaxshilash, cholg'ularda yangi texnik imkoniyatlar yaratish, tembr (tovush tusi) nozikliklariga erishish, o'n ikki bosqichli ravon suratlarga bo'lingan xromatik tuzilmalarni joriy etish, tovush qatorlarini kengaytirishdir. Demak rekonstruksiya bo'ysungan musiqa cholg'ularini takomillashtirish cholg'ularni mustahkamliligini, ayrim qismlarni sezgirligini oshirishni, tovush (ohang) hosil qilish sifatini zamonaviy ijrochilikning yuksak texnik va badiiy talablariga javob bera oladigan darajada yaxshilashni anglatadi [2: 46-47]. Musiqa madaniyatining umumiy taraqqiyoti bilan bog'liq bo'lgan cholg'ularni takomillashtirish, xalq ijrochilik san'ati rivoji uchun katta imkoniyatlar yaratdi.

O'zbek xalq cholg'ulari xilma-xil bo'lganligi uchun uni takomillashtirish nihoyatda qiyin vazifa edi. Bu nihoyat uzoq davom etgan va murakkab jarayon bo'ldi. An'anaviy cholg'ularning eski namunalari o'rniga zamonaviy ijrochilikning yuksak talablariga javob bera oladigan yangi, zamonaviyroq namunalari paydo bo'ldi. O'tgan yarim asr mobaynida o'nlab o'zbek, turkman, qirg'iz, qoraqalpoq va kurd cholg'ulari takomillashtirildi. Ularga yangi hayot baxsh etildi. Bu cholg'ular bugungi kunda ham nodir ohang xususiyatlari ajoyib sadolanishi bilan tinglovchilarga manzur bo'lmoqda. Bular qatoriga rubob-prima sozini ham ko'rish mumkin.

Rubob-prima cholg'usi o'zbek xalq cholg'ulari orkestrining mizrobli cholg'ular guruhini yuqori registrli cholg'u bilan to'ldirish maqsadida qashqar rubobi asosida yangidan yaratilgan sozdir. Rubob-prima orkestrdagi mizrobli guruhning ijro mahoratini va imkoniyatlarini sezilarli darajada boyitadi. Badiiy va ijrochilik jihatdan katta imkoniyatlarga ega bo'lgan bu sozda jahon kompozitorlarining mumtoz asarlarini, o'zbek xalq kuylarini, maqolardan namunalarni va O'zbekiston bastakorlari yaratgan musiqalarni ijro etib kelinmoqda. Rubob-primani yaratilishiga shu bilan bir qatorda sozni rivojiga o'zining katta hissa qo'shgan ko'zga ko'ringan olim, professor, davlat mukofoti sohibi, O'zbekiston va Qoraqalpog'istonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi, cholg'ushunos Ashot Ivanovich Petrosyansning xizmatlari alohida diqqatga sazovordir. Uning boshchiligida ish olib borgan yetuk cholg'ushunoslardan S. Ye. Didenko, A. A. Kevxoyans, V. A. Romanchenkolar tomonidan qashqar rubobi asosida yangi rubob-prima sozi yaratildi.

Ilk bor tayyorlangan rubob-prima sozining ko'rinishi qashqar-rubobiga o'xshash beshta torli bo'lib, birinchi va ikkinchi torlar juft, uchinchi esa yakka torlar bo'lgan Ularning sozlanishi quyidagicha:

1-tor "re" ikkinchi oktava

2-tor "lya" birinchi oktava

3-tor "mi" birinchi oktava

Tovush hajmi birinchi oktava "mi" tovushidan uchinchi oktava "sol" tovushigacha bo'lgan. Yangi soz o'z davrining ijrochilik talablariga to'la javob bera olmadi. Chunki cholg'uning dastasi uzun bo'lib, sozlash quloqchalari yog'ochdan yasalgan bo'lganligi sababli nisbatan tarang tortilgan torlarining quvvati bardosh bera olmas edi. Bundan tashqari cholg'uning tovush sifati ham mavjud guruhning o'zga cholg'ulari tovushidan ajralib turar edi. Cholg'uning badiiy imkoniyatlari ham cheklanganligi sababli bu cholg'u ijrochilik amaliyotida ijobiy natijalar bera olmadi. Rubob-prima cholg'usi xalq sozlaridan qashqar rubobining shakli asosida vujudga keldi. Shakli jihatidan qashqar rubobiga o'xshasa ham, hajrni, tovush tembri, diapazoni, sozlanishi hamda ijro etishning

ayrim tamoyillari bo'yicha undan farq qiladi. Bu cholg'uda yakkanavoz, shuningdek, ansambl va orkestr tarkibida ijro etiladi. Diapazoni kichik oktava "SOL"dan to'rtinchi oktava "MI" gacha. Rubob-primaning texnik imkoniyatlari va boshqa xususiyatlari birmuncha murakkab bo'lgan asarlarni ham bemalol ijro etish imkoniyatini beradi. Rubob-prima cholg'usi asosan qattiq yog'ochlardan yasaladi. Uning kosa qismi "qovurg'a" shaklida yoki o'yma ham bo'lishi mumkin. Har taraflama sifatli tayyorlangan cholg'u ijro etishni o'rganishda yaxshi samara beradi. Rubob-prima cholg'usini shartli ravishda quyidagi qismlarga bo'lish mumkin.

Cholg'uning bosh qismida torlarni tortib turadigan va ularning sozlanishini ta'minlaydigan quloqlar o'rnatilgan. Dasta qismida esa metall dan ishlangan parda bo'linmalari joylashtirilgan. Ularning har bo'linmasi 0,5 tonga teng va tartib bo'yicha bosh qismidan kosa qismiga qarab sanaladi. Dasta va kosaning birlashgan joyida bezak vazifasini o'taydigan shoxlar o'riatilgan. Kosaning yuzi baliq terisi bilan qoplanadi. Shu terining ustiga torlarni kerakli masofaga ko'tarib turish uchun xarrak o'rnatiladi. Xarrakning qattiq material(yog'och)dan ishlanishiga e'tibor berish kerak. Chunki torlar (ayniqsa "Mi" va "LYa") sozlanganda katta kuch bilan xarrakka bosiladi.

Kosaning pastki qismida esa torlarning bir uchini ilib qo'yish uchun to'rtta tugmacha (ilgak) o'rnatilgan. Rubob-primaning to'rtta tori bo'lib, ular o'zaro yo'g'onligi jihatidan bir-biridan farq qiladi:

Birinchi tor - MI, diametri - 0,25 mm.

Ikkinchi tor - LYa, diametri - 0,30 mm.

Uchinchi tor - RE, diametri - 0,30 mm va o'ramasi - 0,15 mm.

To'rtinchi tor - SOL, diametri - 0,35 mm va o'ramasi - 0,20 mm.

Uchinchi va to'rtinchi torlarning usti zich qilib o'ralgan jez sim bilan qoplangan bo'ladi. Rubob-primaning menzurasi - 360 mm. Torlar bir tarafdin cholg'uning kosa qismidagi tugmachalarga va boshqa tarafdin quioqlarning o'qlariga tartib bo'yicha o'rnatiladi. Torlar bilan parda bo'linmalari orasidagi masofaning katta yoki kichikligi xarrakning baland yoki pastligini aniqlaydi. Agar xarrak baland joylashgan bo'lsa, o'z navbatida torlar ham baland ko'tarilib, chap qo'l barmoqlarining erkin harakatlanishiga xalaqit beradi. Yoki aksincha, torlar keragidan ortiq past joylashsa, tovush sifati yomonlashadi va simlar "jizillab" qoladi. Shu sababli rubob-prima ijrochisi xarrakning kerakli hajmda bo'lishi hamda uning baland-pastligini to'g'ri belgilay olishi zarur bo'ladi.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, rubob prima ijrochiligi bugungi kunda o'zbek musiqa ijrochiligida o'ziga xos o'ringa ega bo'lgan sohalardan hisoblanib, yanada taraqqiy etmoqda. Buni hozirgi kunda yosh ijrochilarning, talabalarning ijrolaridan, ularning izlanishlaridan kuzatish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Мирзиёев Ш.М. “Ўзбек миллий мақом санъатини янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги қарори.//Халқ сўзи. 2017 йил 18 ноябр.
2. Одилов А. Ўзбек халқ чолғуларида ижрочилик тарихи. “Ўқитувчи” нашриёти Т., 1995. 46-47 бб.
3. Дадамухамедов А. Рубоб-прима дарслиги. “Муסיқа” нашриёти. Т., 2006.
4. Гочкабаров А. Рубоб прима чолғу ижрочилиги. Ўқув қўлланма. “Муסיқа” нашриёти Т., 2015.



MAZMUNÍ

MUZÍKATANÍW

1	Раджабова С.Р. СОВРЕМЕННОЕ ВОКАЛЬНОЕ ПРОИЗВЕДЕНИЕ: СОЕДИНЕНИЕ ТРАДИЦИИ И ИННОВАЦИИ В АЦИОНАЛЬНОМ МУЗЫКАЛЬНОМ ИСКУССТВЕ.....	3
2	Туйчиева Р.Х. СОНАТА ДЛЯ СКРИПКИ И ФОРТЕПИАНО ФАТТАХА НАЗАРОВА В КЛАССЕ КАМЕРНОГО АНСАМБЛЯ.....	12
3	Muxamedjanova Z. YOSH KOMPOZITORLAR IJODIDA KAMER-CHOLG‘U ASARLARINING IJROCHILIK TALQINI.....	17
4	Ражабова Н.Ф. ЛАДЫ НАРОДНОЙ МУЗЫКИ В КУРСЕ СОЛЬФЕДЖИО.....	26
5	Saidxonov A.S. IOGAN SEBASTYAN BAX OHANGLARDAN TARALAYOTGAN HAYOT.....	31
6	Muxamedjanova Z. B.TURSUNBOYEVNING FORTEPIANO UCHUN “SAVTI KALON SOQIYNOMASI” MAVZUSIGA VARIATSIYASI TAHLILI VA TALQIN MASALASI.....	36
7	Чаршемов Ж.А. ОРКЕСТР УЧУН КОНЦЕРТ ЖАНРИ ТАРИХИ.....	44
8	Kamalova G.M. JAMIL CHARHEMOVTIŇ “POPURRI” SHÍGARMASINIŇ ÓZGESHELIGI.....	52
9	Allaniyazov B.Q. «MUXAMMES» JANRINIŇ TEORIYALÍQ HÁM ÁMELIY MASHQALALARI.....	58
10	Мухамедзиянов К.Т. О ВОКАЛЬНОМ ЦИКЛЕ «РУБАЯТ» НОДИРА МАХАРОВА НА СЛОВА АЛИШЕРА НАВОИ.....	64

KÓRKEM ÓNER

11	Allanbaev R.O. MUZÍKALÍ SHÍGARMALARDIŇ QARAQALPAQ TEATRÍNDÁ TUTQAN ORNI.....	69
12	Djumaniyazov U.M. XALQ CHOLG‘ULARI ORKESTRIDA RUBOB PRIMANING O‘RNI.....	76
13	Áliev N.Ġ. QARAQALPAQ MUZIKA MÁDENIYATINDA DEMLI ÁSBAPLAR.....	81
14	Kamalova G., Dauletbaeva G. DUWTAR SAZ ÁSBABIŇ ZAMANAGÓYLESTIRIWDIŇ ÁHMIYETI.....	89
15	Karimova N. O‘ZBEKISTONDA O‘TKAZILAYOTGAN XALQARO TIVALLARNING MADANIY ALOQALARDAGI ROLI (Xalqaro asal ivali misolida).....	95
16	Ризаев О. ТЕАТР ВА ЗАМОҲ.....	105
17	Shukurov A. MILLIY O‘ZLIKNI ANGLASHDA MILLIY MADANIYATNING AHAMIYATI.....	111

18	Хожаназаров Т. ҚОРАҚАЛПОҒИСТОНДА ОПЕРА САНЪАТИНИНГ ШАКЛЛАНИШИ ВА РИВОЖЛАНИШ БОСҚИЧЛАРИ.....	117
19	Мамадалиев А. ЎЗБЕК МАДАНИЙ МУСИҚА ИЖРОЧИЛИГИДА ХАЛҚ ЧОЛҒУЛАРИ АНСАМБЛЛАРИНИНГ ТУТГАН ЎРНИ (чангчилар ансамблида Ф.Содиқовнинг “Ҳумор” асари мисолида)..	122
20	Назаров О. МИЛЛИЙ ЧОЛҒУЛАРДА ЎҚИТИШ УСЛУБИЁТИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШДА МУТАХАССИСЛИК ФАНИ ЎҚИТУВЧИЛАРИ ФАОЛИЯТИНИНГ АҲАМИЯТИ (Абдувоҳид Мажидов фаолияти мисолида).....	129
21	Юлдашева М.Б. РОЛЬ МЕЖКУЛЬТУРНОГО ВЗАИМОДЕЙСТВИЯ И КУЛЬТУРНОЙ ДИПЛОМАТИИ В ПРОДВИЖЕНИИ КУЛЬТУРЫ УЗБЕКИСТАНА.....	135

MUZÍKA PEDAGOGIKASÍ

22	Gulmanov I.Sh. DÁP ÁSBABÍN OQÍTÍW METODIKASÍ TARIYXÍ..	143
23	Iseev R. FORTEPIANO SABAGÍNDÁ SES GOZALLÍGÍ ÚSTINDE ISLEW PROCESI.....	154
24	Yusupaliyeva D.K. YANGI O‘ZBEKISTON YOSHLARI TARBIYASIDA MILLIY QADRIYAT: MONIYAT VA MAZMUN....	160
25	Азимов Б. ИЛМ ВА ТАЖРИБАДАГИ ПЕДАГОГИК МАҲОРАТ (Васильев Феоктист Никифорович ижоди мисолида).....	168
26	Казакбаева М. РОЛЬ И РАЗВИТИИ ЦИФРОВЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ В МУЗЫКАЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ.....	175
27	Умарова В. РАБОТА НАД ПОЛИФОНИЧЕСКИМИ ПРОИЗВЕДЕНИЯМИ В КЛАССЕ «СПЕЦИАЛЬНОЕ ФОРТЕПИАНО».....	180

JÁMIYETLIK-GUMANITAR PÁNLER

28	Тлеуниязова Г.Б. ЗАМОНАВИЙ ҚОРАҚАЛПОҚ ЛИРИКАСИНИНГ ТАРАҚҚИЁТ ТАМОЙИЛЛАРИДА ШЕЪР КОМПОЗИЦИЯСИ.....	186
29	Бекбергенова А.У. ПИСЬМЕННЫЙ ПАМЯТНИК «КИТАБИ ДЕДЕМ КОРКУТ» И ДАСТАН «ЕР ЗИЙУАР».....	196
30	Бекбергенова А.У. ҚАРАҚАЛПАҚ ОЧЕРКЛЕРИНИҢ РАЎАЖЛАНЫЎ ТЕНДЕНЦИЯЛАРЫ (1991-2000-жыллар).....	202

MUZÍKA HÁM KÓRKEM ÓNER
XABARSHÍSÍ
Ilimiy-metodikaliq jurnal

“STATION X” baspası
Nókis-2024